

YOZMA NUTQNI RIVOJLANTIRISHDA QO‘LLANILADIGAN TOPSHIRIQLAR TASNIFI

Razzaqov Xatam Sadin o‘g‘li,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada yozma nutqni rivojlantirishda qo‘llaniladigan topshiriqlar tizimi, ularning tasnifi, metodik asoslari hamda o‘quvchilarda shakllantiradigan kompetensiyalari tahlil qilinadi. Yozma nutqning psixolingvistik va pedagogik xususiyatlari yoritilib, yozma nutq topshiriqlarini maqsad va faoliyat turiga ko‘ra tasniflash mezonlari asoslab beriladi. Shuningdek, zamonaviy ta‘lim jarayonida yozma nutqni rivojlantirishda interaktiv va kommunikativ yondashuvlarning ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: yozma nutq, topshiriq, tasnif, metodika, kompetensiya, psixolingvistika, kommunikativ yondashuv.

Abstract. This article analyzes the system of tasks employed in the development of written speech, their classification, methodological foundations, and the competencies they cultivate in students. The psycholinguistic and pedagogical characteristics of written speech are examined, and the criteria for classifying written speech tasks according to their purpose and type of activity are substantiated. Furthermore, the article reveals the importance of interactive and communicative approaches in developing written speech within the modern educational process.

Keywords: written speech, task, classification, methodology, competence, psycholinguistics, communicative approach.

Аннотация. В данной статье анализируются система заданий, применяемых для развития письменной речи, их классификация, методические основы, а также компетенции, формируемые у учащихся. Рассматриваются психолингвистические и педагогические особенности письменной речи, обосновываются критерии классификации заданий по развитию письменной речи в соответствии с их целью и видом деятельности. Также раскрывается значение интерактивного и коммуникативного подходов в развитии письменной речи в современном образовательном процессе.

Ключевые слова: письменная речь, задание, классификация, методика, компетенция, психолингвистика, коммуникативный подход.

Kirish. Yozma nutq – bu o‘quvchilarning fikrni mantiqan izchil, grammatik jihatdan to‘g‘ri va uslubiy jihatdan aniq ifodalash qobiliyatini shakllantiruvchi muhim nutq faoliyati turidir. Zamonaviy ta‘lim tizimida yozma nutqni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda, chunki u nafaqat tilni egallash, balki mustaqil fikrlash, tahlil qilish va ijodiy yondashuvni ham rivojlantiradi.

Yozma nutqni rivojlantirishda samarali metodlardan biri – maqsadga yo‘naltirilgan topshiriqlar tizimini ishlab chiqish va ularni didaktik jihatdan to‘g‘ri tasniflashdir. Mazkur maqolada aynan shu masala ilmiy-metodik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi.

Zamonaviy ta‘lim tizimida o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu kompetensiya tarkibida yozma nutq alohida o‘rin egallaydi, chunki yozma nutq o‘quvchilarning fikrni mantiqan izchil, grammatik jihatdan to‘g‘ri hamda uslubiy jihatdan aniq ifodalash qobiliyatini

shakllantiradi. Yozma nutq orqali o'quvchi nafaqat o'z bilimlarini bayon qiladi, balki mustaqil fikrlash, tahlil qilish va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

Bugungi globallashuv va axborotlashuv davrida yozma kommunikatsiyaning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Turli elektron platformalar, ilmiy va rasmiy yozishmalar, ommaviy kommunikatsiya vositalari yozma nutq madaniyatiga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirmoqda. Shu sababli yozma nutqni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish pedagogika va til o'qitish metodikasi oldida turgan dolzarb masalalardan biridir.

Yozma nutqni rivojlantirish samarali topshiriqlar tizimini ishlab chiqish va ularni metodik jihatdan to'g'ri tasniflash bilan chambarchas bog'liqdir. Mazkur maqolada aynan yozma nutqni rivojlantirishda qo'llaniladigan topshiriqlarning tasnifi hamda ularning metodik ahamiyati ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi.

Adabiyotlar sharhi. Yozma nutqni rivojlantirish muammosi ko'plab xorijiy va mahalliy metodist olimlar tomonidan o'rganilgan. Tadqiqotlar yozma nutq murakkab psixolingvistik va pedagogik jarayon ekanligini ko'rsatadi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, "Insonlar 1 000 000 yildan ortiq vaqt davomida gaplashib kelmoqda. Nutqqa bo'lgan bu uzoq bog'liqlik sababli inson miyasida hozir til va nutqni qayta ishlashga ixtisoslashgan alohida hududlar mavjud (ayniqsa Broka va Vernike sohalari hamda Silviy yorig'i atrofidagi kichik hududlar). Bolalar gapirishni o'z-o'zidan o'rganadilar, chunki ularning miyasi aynan shu qobiliyatni rivojlantirishga moslashgan.

Ammo yozish va o'qish bunday emas. Yozish (o'qish kabi) insoniyat uchun nisbatan yangi faoliyatdir. Shumer tili odatda birinchi yozma til deb hisoblanilsa-da, bor-yo'g'i 7000 yil oldin paydo bo'lgan.

Miyada yozish uchun maxsus markaz yo'q. Bizning DNKimizda yozish yoki o'qish uchun genlar mavjud emas. Balki yana 100 000 yildan keyin bo'lishi mumkin. Ammo hozircha bunday emas. Maxsus miya hududi bo'lmagani uchun, o'qish va yozishni o'rganish boshqa miya qismlaridan "joy olish" orqali amalga oshadi, chunki bu jarayonlar o'rgatiladi va o'rganiladi." (Haven, 2015, 4-5 b.)

Bundan anglashiladiki, insonning og'zaki nutqi biologik evolyutsiya mahsuli sifatida shakllangan bo'lib, u million yillar davomida insoniyatning asosiy kommunikativ vositasi vazifasini bajargan. Shu sababli inson miyasida nutqni qayta ishlashga ixtisoslashgan maxsus neyrofiziologik tizimlar shakllangan. Xususan, nutq ishlab chiqish va tushunish jarayonlari bilan bog'liq miya hududlari mavjud bo'lib, ular insonning tabiiy rivojlanish jarayonida deyarli avtomatik tarzda faollashadi. Natijada bola maxsus tayyorgarliksiz ham og'zaki nutqni egallaydi, ya'ni gapirish qobiliyati tug'ma va biologik asosga ega hisoblanadi.

Yozma nutq esa insoniyat tarixida nisbatan yangi hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Yozuv tizimlari taxminan so'nggi bir necha ming yilliklar ichida shakllangan bo'lib, bu davr biologik evolyutsiya uchun yetarli emas. Shu bois inson miyasida yozish yoki

o'qishga maxsus moslashgan alohida genetik mexanizm yoki mustaqil neyron markazlari mavjud emas. Yozma nutq ko'nikmalari ijtimoiy-madaniy tajriba asosida shakllanadi va ular faqat maqsadga yo'naltirilgan ta'lim jarayoni orqali o'zlashtiriladi. Bu jihat yozma nutqning sun'iy va o'rganiladigan ko'nikma ekanligini ko'rsatadi.

Neyropsixologik nuqtayi nazardan qaralganda, yozish va o'qish jarayonlari miyaning boshqa funksional tizimlari: ko'rish, xotira, diqqat va og'zaki nutq bilan bog'liq hududlarining o'zaro integratsiyasi asosida amalga oshadi (Fernandez, Helan, 2011). Ya'ni yozma nutq "tayyor" tizim emas, balki mavjud kognitiv resurslarning qayta tashkil etilishi natijasidir. Shu sababli bu jarayon ko'proq murakkab, ko'p bosqichli va ongli faoliyatni talab qiladi. O'quvchi yozishni o'rganishda bir vaqtning o'zida bir nechta komponentlarni – grafik belgi, fonetik moslik, grammatik tuzilma va mazmuniy izchillikni boshqarishi zarur bo'ladi.

Mazkur farqlar ta'lim jarayonida alohida metodik yondashuvni talab etadi. Agar og'zaki nutqni rivojlantirishda asosiy e'tibor tabiiy kommunikativ muhitni yaratishga qaratilsa, yozma nutqni shakllantirishda tizimli, bosqichma-bosqich va maqsadli mashqlar muhim ahamiyat kasb etadi. Yozma nutqni o'rgatish jarayoni o'quvchilardan nafaqat lingvistik bilimlarni, balki mantiqiy fikrlash, rejalashtirish, tahlil qilish va o'z-o'zini nazorat qilish kabi yuqori darajadagi kognitiv ko'nikmalarni ham talab qiladi.

Yozma nutqni rivojlantirish muammosi tilshunoslik va pedagogika fanlarida eng dolzarb yo'nalishlardan biri sifatida ko'plab xorijiy va mahalliy metodist olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Ushbu yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar yozma nutqni shakllantirish jarayonining murakkab, ko'p bosqichli va tizimli yondashuvni talab etuvchi jarayon ekanligini ko'rsatadi.

Xorijiy metodistlar orasida yozma nutqni rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratgan olimlardan biri J. Harmer bo'lib, u yozma nutqni o'qitishda mashq va tizimli faoliyatning hal qiluvchi ahamiyatini ta'kidlaydi. Uning fikricha, yozma nutq faqat grammatik bilimlar asosida emas, balki muntazam mashq, fikrni rejalashtirish va tahrirlash orqali shakllanadi (Harmer, 2006).

Shuningdek, J. Richards va W. Renandya yozma nutqni kommunikativ yondashuv asosida o'rgatish zarurligini asoslab, topshiriqlar real hayotiy vaziyatlarga yaqinlashtirilishi kerakligini ta'kidlaydilar. Ular yozma nutqni til o'rganishning markaziy komponenti sifatida baholab, uni boshqa nutq faoliyatlari bilan integratsiyada rivojlantirishni taklif etadilar (Richards, Renandya, 2002).

O'zbek olimlaridan Omonulla Madayev (2017) yozma nutqni rivojlantirishda diktant, bayon hamda inshodan foydalanishning ahamiyatini izohlaydi. Olim o'zining kitobida ushbu yozma ish turlaridan qachon va qanday foydalanish kerakligi, ularning o'quvchilar yozma nutqini rivojlantirishdagi ahamiyati haqida fikr yuritadi. Kitobda asosiy e'tibor inshoga qaratilgan bo'lib, muallif ushbu yozma ish turning ichki tasniflanishini, har bir insho turi bir-biridan qanday farq qilishini izohlaydi. Shuningdek, insho mavzularini

shakllantirishdan tortib ularga epigraf tanlash va baholash me'zonlarigacha batafsil tahlil qilinadi. Shunga ko'ra "Insho tez fursatda o'rganiladigan yoki o'zlashtiriladigan yozma ish turi emas. Insho yozish ko'nikmalariga qisqa muddatda ega bo'lish qiyin, albatta. Yaxshi, har tomonlama maqsadga muvofiq insho ko'p yillik faoliyat mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Avvalo, ko'p mutolaa qilish, imlo lug'atlari, izohli lug'atlardan boxabar bo'lish, atroflicha bilimga ega bo'lish talab darajasida yoziladigan insholarga zamin yaratadi." (Madayev va boshqalar, 2017, 13-b.)

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda yozma nutqni rivojlantirishda qo'llaniladigan topshiriqlarni tasniflash hamda ularning metodik samaradorligini aniqlash maqsadida tahliliy, tavsifiy va qiyosiy metodlardan foydalanildi.

Tadqiqot davomida pedagogik va metodik adabiyotlar o'rganildi, yozma nutq topshiriqlari mazmuni tahlil qilindi hamda ularni tasniflash mezonlari ishlab chiqildi. Shuningdek, yozma nutqni rivojlantirishda qo'llaniladigan topshiriqlar quyidagi mezonlar asosida guruhlashtirildi:

- maqsadiga ko'ra;
- faoliyat turiga ko'ra;
- kommunikativ yo'nalishiga ko'ra;
- ijodiylik darajasiga ko'ra.

Tadqiqot metodologiyasida kommunikativ yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv hamda psixolingvistik tamoyillar asos qilib olindi. Yozma nutq topshiriqlari oddiydan murakkabga qarab bosqichma-bosqich tashkil etilishi zarurligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari yozma nutqni rivojlantirishda topshiriqlarni ilmiy asosda tasniflash ta'lim samaradorligini oshirishini ko'rsatdi.

Yozma nutqni rivojlantirishda qo'llaniladigan topshiriqlarni tasniflash ularning metodik samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur topshiriqlar, avvalo, maqsadga ko'ra hamda o'quv faoliyati turiga ko'ra guruhlarga ajratiladi. Har ikki tasnif o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, o'quvchilarda yozma nutq kompetensiyasini bosqichma-bosqich shakllantirishga xizmat qiladi.

Maqsadga ko'ra topshiriqlar bilim beruvchi, ko'nikma hosil qiluvchi hamda ijodiy topshiriqlarga ajratiladi. Bilim beruvchi topshiriqlar o'quvchilarga til birliklari, grammatik qurilmalar va imlo qoidalarini o'rgatishga qaratilgan bo'lib, ular yozma nutqni shakllantirishning boshlang'ich bosqichida muhim o'rin tutadi. Bunday topshiriqlar orqali o'quvchilar so'z, gap va grammatik shakllarni tanib olish, ularni to'g'ri qo'llash kabi dastlabki bilimlarga ega bo'ladilar. Masalan, matndan ma'lum so'z turkumlarini ajratib yozish, bo'sh joylarni mos grammatik shakl bilan to'ldirish yoki berilgan so'zlar asosida gap tuzish kabi mashqlar bilim beruvchi topshiriqlar sirasiga kiradi.

Ko'nikma hosil qiluvchi topshiriqlar esa nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashga xizmat qiladi. Bu bosqichda o'quvchilar o'rganilgan til materiallarini mustaqil ravishda qo'llashga o'rganadilar, gaplarni mantiqan bog'lash, fikrni izchil bayon etish ko'nikmalari

shakllanadi. Bunday topshiriqlarga gaplarni bir zamondan ikkinchi zamonga o'zgartirish, matnni qisqartirish yoki kengaytirish, tartibsiz berilgan gaplardan mantiqiy matn tuzish kabi mashqlar kiradi. Ushbu topshiriqlar o'quvchilarda yozma nutqni tashkil etish, grammatik moslashuvni ta'minlash hamda nutqiy birliklarni o'zaro bog'lash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Ijodiy topshiriqlar esa yozma nutqni rivojlantirishning yuqori bosqichi hisoblanib, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, tasavvuri va nutqiy erkinligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu turdagi topshiriqlar ochiq xarakterga ega bo'lib, o'quvchidan muayyan mavzu asosida mustaqil matn yaratish talab etiladi. Masalan, berilgan mavzu asosida insho yoki esse yozish, rasmga qarab hikoya tuzish, hayotiy vaziyatga munosabat bildirish kabi topshiriqlar ijodiy faoliyatni rivojlantiradi. Natijada o'quvchilarda mantiqiy izchillik, nutq madaniyati va ijodkorlik ko'nikmalari shakllanadi.

Yozma nutq topshiriqlari faoliyat turiga ko'ra ham reproduktiv, rekonstruktiv va produktiv turlarga ajratiladi. Reproductiv topshiriqlar tayyor namunani takrorlashga asoslangan bo'lib, ular asosan boshlang'ich bosqichda qo'llaniladi. Bunday topshiriqlar o'quvchilarda yozuv texnikasi, imlo savodxonligi va grammatik aniqlikni shakllantiradi. Masalan, matnni ko'chirib yozish, bo'sh joylarni to'ldirish yoki berilgan gapni o'zgartirmay qayta yozish reproduktiv topshiriqlarga misol bo'la oladi.

Rekonstruktiv topshiriqlar esa o'quvchidan mavjud materialni qayta ishlashni talab qiladi. Bu jarayonda o'quvchi gap yoki matnni o'zgartiradi, qayta tuzadi yoki yangi shaklga keltiradi. Masalan, gaplarni boshqa zamonga o'tkazish, dialogni monologga aylantirish yoki matnni qisqartirib yozish kabi topshiriqlar rekonstruktiv faoliyatni tashkil etadi. Ushbu topshiriqlar o'quvchilarda tahlil qilish, moslashtirish va qayta tuzish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Produktiv topshiriqlar esa o'quvchining to'liq mustaqil yozma nutq yaratishiga asoslanadi. Bu turdagi topshiriqlar yozma nutqni rivojlantirishning eng yuqori bosqichi hisoblanadi. O'quvchilar berilgan mavzu asosida mustaqil matn tuzadilar, o'z fikrlarini erkin va mantiqan izchil bayon etadilar. Masalan, esse yozish yoki muammoli savolga yozma javob berish kabi topshiriqlar produktiv faoliyatni namoyon etadi. Bunday topshiriqlar orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlash, nutqni rejalashtirish va uslubiy tanlash ko'nikmalari shakllanadi.

Shunday qilib, yozma nutq topshiriqlarini maqsadga va faoliyat turiga ko'ra tasniflash ularni ta'lim jarayonida samarali qo'llash imkonini beradi. Mazkur tasnif asosida topshiriqlarni oddiydan murakkabga qarab tizimli ravishda tashkil etish o'quvchilarda yozma nutq kompetensiyasini izchil rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, yozma nutqni rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Yozma nutq o'quvchilarning nafaqat til bilimlarini, balki tafakkur, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini ham shakllantiradi.

Tadqiqot davomida yozma nutqni rivojlantirishda qo‘llaniladigan topshiriqlar tizimi ilmiy-metodik jihatdan tahlil qilindi hamda ularni maqsad va faoliyat turiga ko‘ra tasniflash mezonlari ishlab chiqildi. Aniqlanishicha, topshiriqlarni izchil va bosqichma-bosqich tashkil etish yozma nutq kompetensiyasini samarali shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, kommunikativ va kompetensiyaviy yondashuv asosida ishlab chiqilgan topshiriqlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, mantiqiy bayon qilish hamda ijodiy faoliyatini rivojlantirishda muhim metodik vosita bo‘lib xizmat qilishi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Madayev O. va boshqalar. *Yozma ish turlari: Insho, bayon, diktant*. – Toshkent: Turon Zamin Ziyo, 2017.
2. Haven K. *Writing Workouts to Develop Common Core Writing Skills*. – California, 2015.
3. Fernandez M., Helen S. *Fundamentals of Psycholinguistics*. – London, 2011.
4. Richards J., Renandya W. *Methodology in Language Teaching*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2002.
5. Harmer J. *Electronic Journal of Foreign Language Teaching*. – Harlow: Longman, 2006. – Vol. 3. – №2. – P. 246–248.

